

BADIIY TARJIMADA OCHIQLIK QANCHALIK MUHIM

Nurmatova Muyassar Toshpolat qizi

Toshkent Davlat O‘zbek tili va Adabiyoti universiteti

E-mail: muyassarolimxonova03@gmail.com

Annotatsiya: *Badiiy tarjimada ochiqlikning ahamiyati juda katta. U asarlarning ma’nosi va hissiyotini to‘g‘ri yetkazishda, madaniy kontekstni saqlashda hamda o‘quvchini jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ochiqlikni saqlash badiiy tarjimonlar uchun muayyan qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin, biroq bu jarayon asarning chuqurroq tushunilishini ta’minlaydi. Ushbu maqolada asarning asl mazmunini saqlash jarayonida yuzaga keladigan ayrim muammolar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy tarjima, ochiqlik, madaniy kontekst, realiyalar, tarjimon.*

Badiiy tarjima jarayoni murakkab bo‘lib, u tarjimonning intellektual salohiyati va madaniy bilimiga bevosita bog‘liqdir. Ma’lumki, badiiylik ko‘p qirralilikni anglatadi. Badiiy asarlarning ma’nosi ko‘pincha murakkab va qatlamlidir. Shu sababli badiiy tarjima faqat so‘zlarni almashtirish emas, balki asarning asl mazmunini o‘quvchiga to‘laonli yetkazib berish jarayoni hisoblanadi.

Ochiqlik badiiy tarjimaning ajralmas qismi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tamoyil orqali tarjimon tarjima qilinayotgan asarni o‘quvchiga yanada chuqurroq bog‘laydi. Ochiqlik madaniy realiyalarni va an’anaviy qadriyatlarni saqlashga yordam beradi, bu esa o‘quvchiga muallif maqsadini yanada aniqroq anglash imkonini beradi. Ochiqlikni muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot yo‘li, deb baholash mumkin. O‘quvchi asar bilan bog‘langan holda muallifning his-tuyg‘ularini ham to‘liq anglay oladi.

Har qanday jarayon singari badiiy tarjimada ham muammolar mavjud. Badiiy tarjimada ochiqlikni saqlashga to‘sqinlik qiluvchi bir qator omillar bor. Tarjimonlik ko‘p tillilikka asoslangan soha bo‘lib, tarjima jarayonida o‘zaro farq qiluvchi madaniy elementlar — urf-odatlar, an’analar, milliy madaniy so‘z va iboralar ochiqlikni ta’minlashda muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi. Madaniyatga xos so‘z yoki tushunchalarni tarjima qilish murakkab, chunki ularning ma’nolari turli xalqlar tafakkurida har xil talqin qilinishi mumkin. Natijada tarjimon bilmagan holda xatolikka yo‘l qo‘yib, kontekstni buzib qo‘yishi ehtimoli mavjud.

Ba’zi so‘z va iboralar bir tilning o‘zida bir necha ma’noni anglatishi mumkin. Bu holat tarjimada aniqlikning yo‘qolishiga olib keladi. Tarjimon mahoratini talab qiladigan bunday muammolar ko‘plab bahs va muhokamalarga sabab bo‘lgan asarlarda yaqqol namoyon

bo‘ladi. Shunday asarlardan biri — “Urushning so‘nggi qurboni” asaridir. Ushbu asar sovuq urush davrida xalq boshdan kechirgan azob-uqubatlarni tasvirlagani bois keng muhokamalarga sabab bo‘lgan. Asarda tarjimon uchun qiyinchilik tug‘diradigan jumalardan biri: “Xadicha Shoikromning yonidan o‘tib ketsa ham ikkiqat bo‘lib qolaveradi” iborasidir. Bu jumla o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarli bo‘lsa-da, boshqa millat vakillari uchun g‘aliz va tushunarsiz bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Shu sababli bunday realiyalar tarjimada alohida izoh va yondashuvni talab qiladi.

Har bir tarjimon, avvalo, o‘quvchidir. Biroq tarjima jarayonida u o‘z shaxsiy qarashlarini asarga majburan singdirmasligi lozim. Ochiqlik tarjimondan xolislikni talab etadi. Asar o‘quvchi bilan bevosita muloqot qilishi uchun tarjimon “shaffof” bo‘lishi, o‘z talqinini mutlaq haqiqat sifatida tiqishtirmasligi zarur.

Badiiy tarjimadagi ochiqlik qabul qiluvchi til — ona tilimiz uchun ham foydalidir. Chet tiliga xos yangicha ifoda usullari, kutilmagan tashbehlarning ochiq qoldirilishi ona tilimizning badiiy imkoniyatlarini kengaytiradi, lug‘at boyligini oshiradi.

Badiiy tarjima shunchaki bir tildagi so‘zlarni boshqa tilga ko‘chirish emas, balki madaniyatlararo ko‘prik qurish san‘atidir. Bu jarayonda “ochiqlik” tushunchasi tarjimaning sifati va asarning yangi tildagi umrini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tarjimada ochiqlik — manba matndagi ma‘no, g‘oya va axborotni maqsad tilida tushunarli, aniq va ravshan shaklda ifodalashdir.

Tarjimashunoslikda ochiqlik eksplisitsiya tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Eksplisitsiya tarjima jarayonida yashirin ma‘noning ochiq ifodalanishidir. Har bir til voqelikni o‘ziga xos tarzda aks ettiradi. O‘zbek tilida esa ko‘plab ma‘nolarni ochiq grammatik va leksik vositalar yordamida ifodalash talab etiladi. Masalan:

He was late again. → U yana kechikib keldi.

Bu yerda “again” so‘zi orqali takroriylik ochiq ifodalangan.

Leksik ochiqlik ko‘p ma‘noli so‘zlar, terminlar va metaforalarni aniqlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Grammatik ochiqlik esa zamon, sabab, shart va oqibat munosabatlarini aniqlashtirish bilan bog‘liq. Pragmatik ochiqlik esa nutq maqsadi va yashirin niyatni ochishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, haddan tashqari ochiqlik muallif uslubining yo‘qolishiga, badiiylarning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli tarjimon “zarur joyda ochiqlik, ortiqcha joyda sodiqlik” tamoyiliga amal qilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, badiiy tarjimada ochiqlik — asarni “tirik” saqlash vositasidir. Tarjimon asarning ma‘no qatlamlarini yopib qo‘ymasdan, o‘quvchi tafakkuri uchun ochiq maydon yaratishi zarur. Zero, haqiqiy san‘at asari tarjimada ham o‘z ko‘p ma‘noliligi va estetik kuchini saqlab qolgan holdagina yashay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘afurov, I. (1979). Tarjima san'ati. Adabiyot va san'at nashriyoti. https://books.google.com/books/about/Tarjima_san_ati.html?id=DqX7ngEACA
2. Mahmadiyor Asadov. (2025). A Brief Review Of Vilen Komissarov's Theory Of Equivalence. International Journal Of Literature And Languages, 5(12), 86–89.
3. Salomov, G. (1978). Til va tarjima. Fan. https://books.google.com/books/about/Til_va_tarjima.html?id=16T40QEACAAJ
4. Sharafiddinov, O. (1998). Iste'dod jilolari, Sharq nashriyoti. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_adabiyoti/ozod_sharafiddinov/ozod_sharafiddinov_iste_dod_jilolari
5. Mamarasulova, S. S. (2025). Reklama tarjimasining ahamiyati va o‘ziga xos jihatlari. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS), 8(2),
6. Mirzayev, M. (2020). Badiiy tarjimada milliy ruhni ifodalash muammolari. Til va adabiyot ta'limi, (2), 52-54. <https://uzjta.uz/uz/news/badiiy-tarjimada-milliy-ruhni-ifodalash-muammolari>
7. Abdullayeva, B. (2021). Badiiy matn tarjimasida ekvivalentlikni ta'minlash masalalari. Adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalari, 1(2), 22-26. <http://dx.doi.org/10.53885/2992-0683-2021-1-2-22-26>